



O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MARKAZI BUXORO
VILOYATI HUDUDIIY BO‘LINMASI**

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti

2-SHO‘BA.

AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

**TABASSUM –MULOQOTNING UNIVERSAL
VOSITASI SIFATIDA**

Abuzalova Mehriniso Kadirovna,
BuxDU professori

Boltayeva Nodira O‘tkir qizi,
Buxoro irrigatsiya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabassurning o‘zaro muloqot jarayonida o‘ziga xos aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati xususida so‘z yuritilgan. Tabassum bilan yuzaga chiqqan har qanday nutqning yuqori ta’sir kuchiga ega bo‘lishi bayon etilgan. Shuningdek, nafaqat tilshunoslik, balki boshqa sohalar doirasida ham birgina tabassum orqali ko‘plab muammolarni hal qilish mumkinligi turli misollar orqali izohlangan. Chunki tabassum yaxshi kayfiyat belgisi bo‘lishi bilan birga, o‘zaro muloqot jarayonida insonlarga beqiyos foyda keltiradigan, nutqiy qulaylik yaratib beradigan muhim vositadir.

Kalit so‘zlar: *muloqot, til, aloqa vositasi, tabassum, ijtimoiy tabassum, asl tabassum, xushmuomalalik*

Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni [1]ga muvofiq mamlakatimizda “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘plab tadbirlar, xayrli ishlar amalga oshirilmoqda, tilshunos olimlarimiz tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu harakatlarning barchasi yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizning komil inson sifatida kamol topishi uchun xizmat qiladi, albatta.

Ma’lumki, bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish qiyin. Chunki muloqot inson hayoti va faoliyatining asosiy belgisi hisoblanadi. Aynan muloqot yordamida insonlar borliqni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini

qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro‘yobga chiqariladi.

Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Insoniyatning kundalik faoliyati jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. O‘zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Muloqot — odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan jarayon. Kundalik faoliyat davomida insonlar o‘rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanib boradi. O‘z-o‘zidan ayon bo‘ladiki, faoliyat va muloqot o‘zaro chambarchas, bir-biriga bog‘liq tushunchalar sirasiga kiradi. Kishilar o‘zaro muloqotga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham fikr ifodalashdan iborat. Masalan, biz ma’lum vaziyatda biror kishi bilan muloqotga kirishar ekanmiz, uni hurmat qilib yoki aksincha munosabatda bo‘lamiz. Bu munosabat, avvalo, bizning tashqi ko‘rinishimizda – yuzimizda o‘z aksini topadi. Demak, tabassum ham o‘ziga xos muhim aloqa vositasi hisoblanar ekan. Tabassum til madaniyatlari vakillari o‘rtasidagi har qanday muloqotda salomlashish va xayrlashishning ajralmas elementi bo‘lib, kommunikativ harakatdagi ishtirokchilarining o‘zaro tushunishini ta’minlash uchun zarurdir.

Tabassum [A. — jilmayish; iljayish] Yuz, ko‘z va lablar bilan kulimsirash holati, shunday holat ifodasi; jilmayish. *“Hayotning yuziga shirin tabassum yugurdi”* (M.Ismoilij. “Farg‘ona tong otguncha”). **“UNING LABLARIDA TABASSUMNI KO‘RGAN ZULFIQOR ASHULANI YANA BALANDROQ OLDI” (MIRMUHSIN. “ME’MOR”)** [2: 626].

Muloqot jarayonida turli nizolarning oldini olish uchun ayrim qoidalarga amal qilish - ijobiy emotsiyalarni saqlab turish, ko‘proq tabassum qilish lozim [3: 120].

Shuningdek, tabassum orqali **ijobiy va salbiy** ekspressivlik yuzaga chiqariladi: *“Aravakash yumshoqqina kulimsiradi. Yosh yigitning bu shirin tabassumini oy yorug‘ida ko‘ra olgan yosh qiz qizarib, teskari qaradi...”* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 25-bet)

“OTABEK HAM ISTEHZOLI TABASSUM ORASIDA HOMIDGA KO‘Z QIRINI TASHLADI” (A.QODIRIY. “O‘TGAN KUNLAR”).

YUQORIDAGI MISOLLARNI O‘ZARO TAQQOSLAR EKANMIZ, 1-GAPDAGI “SHIRIN TABASSUM” HAMDA 2-GAPDAGI “ISTEHZOLI TABASSUM” BIRIKMALARI IJOBIY VA SALBIY MA‘NOLARNI IFODALAB, MATN MAZMUNIGA QO‘SHIMCHA TA‘SIRCHANLIK YUKLASH MAQSADIDA QO‘LLANILGANLIGINING GUVOHI BO‘LAMIZ.

SHU BILAN BIRGA, TURLI KO‘RINISHDAGI MATNLARNI TAHLILGA TORTAR EKANMIZ, TABASSUMNING METAFORIK BIRIKMA TARZIDA QO‘LLANILISHIGA HAM GUVOH BO‘LDIK:

“Juda yomon bolalar emas ekan, odamgarchiligi ham chakki emasga o‘xshaydi, degan fikr o‘tdi ko‘nglimdan, nazarimda ukalarim ham shu xususda o‘ylashgan bo‘lsa kerak, yuzlariga qizillik yugurib, **tabassum guli ochilgandek bo‘ldi**” (X.To‘xtaboyev. “Besh bolali yigitcha”, 94-bet). Yozuvchining mahoratini qarangki, birgina tabassumni o‘ziga xos chiroyli o‘xshatish bilan ifodalagan.

“Uning xiyol ochiq lablarida **tabassum o‘ynardi**, ularga tikilib turib o‘zimcha yana shunday deb o‘yladim: mana, Kichkina shahzoda, beozorgina uxlab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatliki, odamning beixtiyor ko‘ngli erib ketadi, gulining yodixayoli, sham shu‘lasining sharpasidek, uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi...” (A.Ekzyuperi. “Kichkina shahzoda”, 76-bet).

Demak, tabassum – universal til. Buni barchamiz bilamiz, ammo kishilar bilan muloqotda ushbu usulga juda kam murojaat qilamiz.

Tabassum boshqalarga tushuntirilishi qiyin bo‘lgan ma‘lumotlarni osonlik bilan yetkazadi va bu o‘rinda psixolingvistik funksiya bajaradi. Chunki u orqali yetkazilgan so‘zlarning inson psixikasiga ta‘siri ko‘proq bo‘ladi.

Uzatilayotgan ma‘noga tabassum hamroh bo‘lsa, uning ta‘sir kuchi yana ham ortiqroq bo‘lishi tabiiy. Latif bir tabassum qiyin vaziyatdagi keskinlikni tarqatib yuborish xususiyatiga ega bo‘lgan beqiyos kuch hisoblanadi.

“SHOIRANING KO‘ZLARI TABASSUMDAN YONIB TURAR EDI” (O‘.HOSHIMOV. “NUR BORKI, SOYA BOR”).

“Yulduzxon Muhiddinga qarab, **ma‘noli tabassum qildi**” (R.Fayziy. “Cho‘lga bahor keldi”).

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

Ma‘lum bo‘lishicha, ko‘plab olimlar tabassumning boshqa insonlarga ta‘sirini tekshirib ko‘rishib, u o‘zida kuchli ma‘lumotlarni jamlashini hamda insonning botiniy aqliga yuqori ta‘sir ko‘rsata olishini aniqlashgan ekan. Har bir insonning o‘ziga xos tabassumi bo‘ladi, boshqa birovning tabassumi birovnikiga o‘xshamaydi. Bunda kishining ruhiy holati, yashayotgan muhiti hamda atrofidagi insonlarning ta‘siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabassum nafaqat yaxshi kayfiyat belgisi, balki organizmga beqiyos foyda ham keltiradi. Bugungi kunda inson tabassumining 19 xili aniqlangan. Ular ikki turga: “ijtimoiy” va “asl” tabassumlarga bo‘linadi. “Asl” tabassum deganda “chin yurakdan” tabassum qilishga aytiladi. U yuzdagi 53 muskulni ishga soladi. “Ijtimoiy”, boshqacha aytganda, “xushmuomalalik uchun” tabassum qilish esa faqat 5 muskulni ishga tushiradi. Umuman, inson tabassum qilganida yuzdagi 17 muskul ishga tushadi [4].



Tabassum kishi yuzi uchun ajoyib badantarbiya hisoblanadi. U inson jismi va aqliga foyda beradi, qon bosimini oshishidan va yurak xastaliklaridan himoya qiladi hamda insonda o‘ziga bo‘lgan ishonchni hosil qiladi.

Tabassum yuz muskullarining holati bilan hamohang tarzda ishlaydigan miya faoliyatining ijobiy holatini kuchaytirishi bilan birga, atrofda gilarining ruhiyatiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Masalan, sizga qarab samimiy jilmayib turgan odamga nisbatan siz ham tabassum bilan muloqotga kirishib ketganingizni o‘zingiz ham bilmay qolasiz. Yoki chin yurakdan berilib kulayotgan kishini ko‘rgan odam, garchi gap nima haqida ketayotganini bilmasa ham, unga qo‘shilib kulib qo‘yadi.

Tabassum – ko‘z o‘tkirligini yaxshilaydi [5].

Tadqiqotlarga ko‘ra, kulib turuvchi odamlarning yoshlik chog‘ida ko‘z nuri o‘tkirligi keskin pasayishi ancha kam sodir bo‘lar ekan. Tabassum paytida yuz beradigan muskullar stimulyatsiyasi nafaqat yuzning yuqori qismini harakatga keltiradi, balki ko‘z nuri o‘tkirligi uchun javob beradigan miya sohasiga signal yuboradi.

Ko‘proq tabassum qilish – hislarni tashqariga chiqarish demak.

Qiyin lahzalarda tabassum qila olish muammoga boshqa tarafdin nazar solish, hatto yechim topish imkonini beradi. Har qanday holatda ham ko‘ngilsizliklarga qarab jilmayish – yaxshi qaror.

Tabassum – yurak urishini sekinlashtiradi. Ko‘p tabassum qilganda yurak ritmi normallasadi, tanamizning eng muhim organi tinchlanadi va bir tekis ishlaydi. Darhaqiqat, tabassum shifodir. Ko‘plab olimlarning e’tirof etishicha, tabassum bemorning kasallikdan tuzalishida alohida o‘rin tutadi. Masalan, shifokorning bemorga qilgan oddiy bir tabassumi uning kasallikdan forig‘ bo‘lishida har qanday dori vositasidan afzalroqdir.



Demak, shifokorning tabassumi har bir tushkunlikka tushgan bemor uchun o‘ziga xos ajoyib malham hisoblanadi. Kundalik hayotda biz hadya etayotgan tabassum ham kimningdir darddan qutilishga yordam berar ekan. Imom Buxoriy rivoyatlarida aytilishicha, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: *“Do‘sting yuziga qarab qilgan tabassuming ham sadaqadir”* [6], – deganlar. Shu va boshqa sabablarga ko‘ra tabassum sadaqaning bir turi hisoblanadi. Chunki atrofdagilarga tabassum bilan boqish ibodat qilish bilan barobar ekan. Shunday ekan, har bir musulmon kishi ushbu oyati karima mazmunidan kelib chiqib, o‘zgalarga yaxshilik qilishga astoydil harakat qilmog‘i lozim. Xullas, tabassum – og‘zaki

bo‘lmagan muloqotning universal vositalaridan biridir. Bu xohlagan millat vakili - evropalik, yaponiyalik yoki eskimos, o‘zbek uchun umumiy bo‘lgan yuz mushaklarining harakati. Tabassum nolingvistik muloqotning eng muhim vositalaridan biri hisoblanib, muloqotning boshlanishiga ham, muloqot jarayoniga ham yordam beradi. Darhaqiqat, tabassumga javoban, ko‘pincha, katta auditoriya oldida nutqni va yakkama-yakka suhbatni osonlashtiradigan javob keladi. Tabassum bilan birga bo‘lgan muloqot yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. ЎТИЛ. 5 жилдли. 3-жилд. –Т.: ЎЗМЭ, 2007. –В.626.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T.: “Turon-Iqbol”, 2006. - B.120.
4. <https://muxlis.uz/oz/pages/tabassum>
5. <http://xabardor.uz/tabassum-koz-nuri-otkirliqi-uchun-foydalimi-tabassum-haqida-7-fakt>
6. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/32870-tabassum-qiling.html>

**SHOIR ERKIN VOHIDOVNING ANTONIMLARDAN
FOYDALANISH MAHORATI**

(Shoir dostonlari misolida)

Adizova Nilufar Istamovna,
BuxDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Poetik asarlarda har bir til birligi muhim estetik ahamiyat kasb etadi. Ulardan qay tarzda foydalanish asosida ijodkorning o‘ziga xos mahorati va uslubi namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq shoiri Erkin Vohidovning qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan foydalanish mahorati uning dostonlari misolida tahlil qilingan. Lingvopoetik xarakterdagi mazkur mavzu doirasida shoirning antonim so‘zlar orqali lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash, asar voqealarining ta’sirli, rang-barang bo‘lishini ta’minlash mahorati aks etgan. Uning til birliklariga zargarona